



SAMARQAND VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



SAMARQAND VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARILISHI


*(2024-yilning yanvar-iyul oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 21 997,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.


yanvar-iyul
mlrd. so'm

15 173,9 17 082,2 21 997,2
2022-yil 2023-yil 2024-yil



yanvar-iyul
FHI, %

109,3 106,2 107,8
2022-yil 2023-yil 2024-yil






■ mlrd. so'm ■ FHI %

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Samarqand shahrida (15 170,7 ming so'm) hamda Jomboy tumanida (11 731,7 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





■ ming so'm ■ o'sish sur'ati, %

Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari (2024-yil yanvar-iyul oylarida)

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib 21 226,5 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni, tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Samarqand shahri (40,5 %), Jomboy tumani (10,2 %), Urgut tumani (8,1 %), hamda Samarqand (6,5 %) tumani hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Kattaqo'rg'on shahrida (118,2 %), Kattaqo'rg'on tumanida (112,8 %) hamda Oqdaryo tumanida (111,7 %) kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (2024-yil yanvar-iyul oylari)

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 4,1 % ga hamda Ishlab chiqarish 8,8 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 29,2 % ga hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish 8,3 % ga pasayishi kuzatildi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 145,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning o'zgarish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2023-yilning yanvar-iyul oylarida 0,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali 13,6 % (13,6 %), o'rta-quyi texnologiyali 21,8 % (17,9 %) va quyi texnologiyali 60,6 % (64,9 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,3 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 156,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 17,5 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,2 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 26,8 % (2023-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi, +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	30,5	31,2	0,7
Paxta tolasi, ming t.	30,6	31,1	0,5
Tozalangan paxta yog'i ming tonna.	11,5	9,8	- 7,1
Shag'al – ming t.	322,8	216,8	- 106,0
Aroq – ming litr 100 % spirt	12,6	87,2	74,6
Tamaki – mln. dona	5 629,7	6 109,3	479,6
Piva – ming litr	16 260,0	14 250,0	- 2 010,0

2024-yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda tozalangan paxta yog'i mahsulotlari 9,8 ming t. (2023-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 14,8 % ga) hamda 106,0 ming tonna shag'al (32,8 %) ishlab chiqarishda pasayish kuzatildi.

Yuk avtomobillari ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyul oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 1 762 dona yuk avtomobillari ishlab chiqarildi. Yuk avtomobillari ishlab chiqarishda o'sish sur'ati o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 28,4 % ga ko'paygan.



2024-yil

1 762 dona

2024-yil

128,4 %

2023-yil

1 372 dona

2023-yil

54,7 %

2022-yil

2 510 dona

2022-yil

104,4 %

Avtobuslar ishlab chiqarish

Samarqand viloyatida 2024-yil yanvar-iyul oylarida 441 dona avtobus ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatgich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,9 % ga kamaygan.



2024-yil

441 dona

2024-yil

97,1 %

2023-yil

454 dona

2023-yil

80,9 %

2022-yil


561 dona

2022-yil

96,4 %




Metallurgiya sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 107,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 9,9 % bo'lib, fizik hajm indeksi esa 95,7 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 173,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 3,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 94,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish ulushi 6,3 % gacha ko'tarilgan, fizik hajm indeksi esa, 156,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1 380,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-iyul oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 29,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 115,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 26,8 %, fizik hajm indeksi esa, 99,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5 891,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 119,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,3 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 107,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 275,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2023-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi 19,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,5 % ni, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 105,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3 856,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 113,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 %, fizik hajm indeksi 102,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 631,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.





Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 142,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi 125,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 333,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish



2023-yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 216,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,4 %, fizik hajm indeksi 108,9 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 307,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 59,7 %.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,3 % ni, fizik hajm indeksi 225,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 513,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Elektr uskunalari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 153,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 112,8 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 594,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 95,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,6 % ni, fizik hajm indeksi 110,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 579,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 9,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 76,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,9 %, fizik hajm indeksi 104,8 % ga hamda ishlab chiqarish hajmi 1 962,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 459,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	65 480,5	201 440,2	135 959,7
Issiqlik energiyasi, mln. gkal	3 279,0	4 317,9	1 038,9



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Elektroenergiya



Issiqlik energiyasi




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 166,4 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-iyul	2024-yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	29 927,5	38 211,8	8 284,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	65 110,0	77 075,0	11 965,1
Plastmassa chiqindilari, tonna	1 763,0	2 001,0	238,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 287 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 076 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 20,4 %) Samarqand shahriga, 734 tasi (13,9 %) Urgut tumaniga, 557 tasi (10,5 %) Samarqand tumaniga, 377 tasi (7,1 %) Pastdarg'om tumaniga va 301 tasi (5,7 %) Ishtixon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan

766 ta

2024-yil yanvar-iyul

860 ta

2023-yil yanvar-iyul

1 106 ta

2022-yil yanvar-iyul



Jami faoliyat yuritayotgan (1-avgust holatiga)

5 287 ta


2024-yil

6 151 ta

2023-yil

8 517 ta

2022-yil




■ yangi tashkil etilgan ■ faoliyat yuritayotgan



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 784,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 49,0 % ni tashkil etdi.

yanvar-iyul
mlrd. soʻm



yanvar-iyul
ulushi, %



■ mlrd. soʻm ■ ulushi, %